

Jahon dinlari

Категория: Миллий ғоянинг илдизлари – Диний;

Муаллиф: Хошимов Ш

Jahon dinlari ya'ni Buddaviylik, Xristianlik va Islom dinining shunday bir ko'rinishiki, bu dinlar paydo bo'lgan xududdagina amal

qilib qolmay, Yer yuzining boshqa xududlarida ham o'zlariga etiqod

qiluvchilarni vujudga keltira olgan dinlardir. Jahon dinlar o'z etiqodchilarning milliy, etnik, til, irq, tug'ilgan joyi, qaysi davlat

fuqarosi ekanligidan qat'iy nazar, bu dinlarni qabul qilishlari mumkin.

Millat dinlari (Iudaizm, Hinduizm, Sintoizm, Konfutsiylik)

elatlarning keyin esa millatlarning shakllanishi jarayonini aks ettirgan.

Bu dinlar o'zlari paydo bo'lgan xududdagi odamlarning (elat,

millatlarning) o'z millatlariga davlatlariga siginishini ifodalovchi

dinlar edi, jaxon dinlariga esa prozelitizm (yunoncha - kelgindi) yani

boshqa diniy etiqoddan odamni o'z diniga kiritishga urinish uni faol

targibotchilik xususiyati xosdir.

Bugungi kunda boshqa dinga etiqod

qilayotgan shaxs ertaga (agar hohlasa albatta) istagan jahon dinini qabul

qilishi mumkin. Jahon dinlari paydo bqlishi bilan endilikda xalqlar

hayotida mumkin hodisa bir dindagi turli xalqlarning yaqinlashuv jarayoni

ham ro'y bera boshladi. Jahon din xam jamiyat taraqqiyotidagi buyuk tarixiy

burilish davrida bir ijtimoiy, iqtisodiy farmatsiyadan ikkinchisiga o'tish,

yagona markazlashgan davlatga birlashish jaxon imperiyalari tarkib

topayotgan paytlarda, yani jahon imperiyasi uni jahon dini yaratish

ehtiyoji tugilgan paytda bo'ldi.

Jahon dinlarida ham milliy dinlar kabi dunyoning 3 bosqichdan iborat ekanligi tan olinadi. Dinga xizmat qiluvchi maxsus ijtimoiy guruh- ruhoniylar qatlami shakllanadi. Diniy e'tiqod olib boorish uchun xizmat qiladigan inshootlar-ibodatxonalar quriladi. Diniy ta'limot, diniy ibodatning muayyan tizimi ishlab chiqilib, ijtimoiy hayotda unga amal qilina boshlaydi. Jahon dinlari turli xalqlar, turli madaniyatlarni yagona diniy ta'limot atrofida birlashtiradi.

Jahon dinlari jamiyat taraqqiyotidagi buyuk tarixiy burilishlar davrida, yagona markazlashgan davlatga birlashish, jahon imperiyalari tarkib topayotgan paytlarida, ya'ni jahon imperiyasi uchun jahon dini yaratish ehtiyoji vujudga kelgan davrda paydo bo'ldi. Jahon dinlari o'z davridagi ijtimoiy jarayonlarni o'zida aks ettirgan mafkura vazifasini bajarib, keyinchalik jamiyat hayotidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda jahon dinlarida ham turli oqim va yo'nalishlar paydo bo'la boshladi.

Bu jahon dinlari ichida birinchi bo'lib paydo bo'lgan din – Buddaviylik dini paydo bo'lib u er. Av. VI asrda Hindistonda vujudga keldi. Eramizning boshlarida, I asrda Xristianlik, eramizning VII asrida esa Islom dini paydo bo'ldi.

Buddaviylik .

Buddaviylik dunyoda birinchi paydo bo'lgan jahon dinidir.

Buddaviylik milloddan avvalgi I mingyillik o'rtalarida Hindistonda paydo bo'ldi. Bu din tarafdorlari uning paydo bo'lishini Shakya Muni-Budda targibotining natijasi deb hisoblaydilar. Aslida esa ularning paydo bo'lishi hind jamiyatida ro'y bergan muhit o'zgarishlar – urug' - qabilachilik aloqa va tartiblarning yemirilishi, sinfiy zulmning kuchayishi hamda yirik quldorlik davlatining paydo bo'lishi bilan bogliq edi. Buddaviylik Hindistonda quldorlik munosabatlari rivojlanayotgan davrda quldorlik mafkurasi sifatida vujudga kelgan. Oldingi din - brahmanlik yirik quldorlik davlatining tashkil topishi, sinfiy zulmning kuchayishi talablariga javob bermay qo'ygan edi. Garchan buddaviylik brahmanlikning tabaqalanish haqidagi talimotiga qarshi o'laroq kishilarning tengligi masalasini o'rtaga tashlagan bo'lsada, u quldorlik jamiyatining asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Buddaviylikning “ yomonlikka qarshi bosh ko'tarmaslik ” to'g'risidagi g'oyasi qullarning quldorlarga qarshi bosh ko'tarmaslikka xizmat qilgan. Shuning uni ham hukmron sinflar buddaviylikning shu g'oyasini keng targ'ib etganlar. Shuning uni ham milloddan avvalgi III asrda (imperator Ashoka davrida) hokimiyatning faol qo'llab - quvatlanishi natijasida budda tashkiloti (rohiblik jamoasi) va diniy aqidachilik vujudga kelgan.

Buddaviylikning asoschisi shahzoda Siddakatra ekanligi tarixiy

manbalarda qayd etilgan. Suddpatra vafot etganidan so'ng Buddha, yani “

xaqiqat najotkori ” deb atalgan.

Buddaviylik ana shu nomdan kelib chiqqan (Suddpatra) Gautama deb

ham ataladi. Diniy rivoyatlarga ko'ra qadim zamonlarda Hindistonda

yashovchi qabilasining xukmdori befarzand bo'lgan. Bu shakiylar

xukmdorining xotini 45 yoshga etganda o'gli tug'ilgan. U tug'ilishdan avval tushida yoniga oq filning kirib yotganini ko'radi. Uning tug'ulishi ham boshqa

ayollardek bo'lmagan. U qo'ltig'idan (biqinidan) tug'ilan. Bola tug'ilganda yerlar qimirlab, chaqmoqlar chaqib momaqaldiraq gumburlab turgan. Uning ovozini koinotdagi hamma xudolar eshitgan. Ular borliqdagi uqubatlarning oldini oladigan odamlar keldi,deb xursand bo'lgan. Chaqaloqqa Siddapatra (topshiriqni bajaruvchi) deb nom qryganlar. Siddxatra 7 kundan keyin yurib ketgan va gapira boshlagan. Siddxatraning otasi o'go'lining diniy ruhda tarbiya topishini istamadi. U hayotning salbiy tomonlarini o'g'lidan yashirib, o'g'liga dabdabali hayotni yaratib berdi. Siddxatra dunyoviy tarbiya berdi. Bir kuni Siddxatra sayr etgani ko'chaga chiqqanida, bir qari cholni (uning butun tanasiga yara toshgan edi), tag'in bir kasal yotgan odamni, yana bir kishining o'lishini ko'radi. Shu tariqa u jonli mavjudotlarning murakkab ozod chekishini bildik. Endi Siddxatra hayot-moxiyati, mazmuni, mashaqqatlari, turli kasallar va o'limi haqida ko'p o'ylaydigan bo'lib qoladi. hayotning bexudaligini anglagan Siddxatra bir kuni kechasi xech kinga

bildirmay saroyini tark etadi, xamda tarkidunyochilikka hayot kechiradi va

bunday xayoti davomida odamlarni ozod-uqubatlardan qutqarish yo'lini

izlab boshlaydi. 7 yil davomida u azob-uqubat bilan ter to'kib, qalin

braxmanlarning muqaddas kitoblarning o'qitdi. Kunlarning birida uning

qarshisida xayot haqiqati ochildi. U bu “ haqiqat ” ni Hindistonning shahar va

qishloqlarni bo'ylab targ'ib qila boshlaydi. Siddxatra o'z talimotining

asosiy qoidalarini Banorasdagi targ'ibotida “ to'rt oliy haqiqat ” shaklida

bayon etgan. Siddxatra 80 yoshida vafot etgan. Shogirdlari qadimgi hind

ananalariga ko'ra, uning jasadini o'tda kuydirganlar. Buddaviylik dinida

muqaddas kitob- “ Tripitaka ” (Uch savat donolik) deb atashadi. Rivoyatlarga ko'ra, Siddxatra uch savat taminot qondirgan. A) Vinoyapitaka (axloqiy normalar); B) Suttapitaka (duolar); V) Abxidkammattitaka (diniy- falsafiy masalalar bayoni)dir. Buddaviylik talimotining asosini Buddha yaratgan, “ to'rt oliy xaqiqat

” tashkil etadi. Azob-uqubat xaqidagi talimot. Azob -uqubatning mutloq ekanligi tan olinadi, yani yashamoq, tug’ilmoq, kasallik, o’lim, yaqin odamidan ajralish

va hakoza azob-uqubat chekmoqlikdir. Azob-uqubatning sabablari haqidagi talimoti. Unga ko’ra mavjudodlik yovuzlikka tengdir. Azoblarning sababni kishilarning istak, nafs-xirsga (yani yashashga baxtga) intilishlaridir, hayotga tashnalikdir. Tashnalikdan - deydi- Budda- mehribonlik kelib chiqadi,

mehribonlikdan borliq yuzaga keladi, borliqdan tug’ilish yuzaga keladi,

tugilishdan qarilik va o’lish, baxtsizlik, g’am-g’ussa, azob-uqubat, xo’rlik,

umidsizlik paydo bqladi. hamma azob-uqubatlar yigindisining kelib

chiqishi shundaydir. Ayni paytda olamning irodasi ana shunday azob-

uqubatlardan qutqarishga yo’naltirilgan. Azob-uqubatlardan ozod bo’lish haqidagi talimot. Unga ko’ra har qanday borliq, barcha ko’rinish va shakllardagi har qanday hayot - bu, barcha mavjudodga azob beruvchi yomonlikdir. Yomonlik va azob-uqubatlarning sababi insonning va barcha tirik mavjudotlarning bu dunyoga - qayta

tug’ilish dunyosiga bog’langanligi, ko’ngil qo’yilganligidir. qar qanday

insoniy tuyg’u hissiyot, ehtiros va istak azob-uqubatni guruhlantiradilar. Yana dahshatliroq tarzda qayta tug’ilishga olib keladi. Borliq girdobidan chiqib olish uni g’aflatdan uyg’otish, dunyo- mohiyatini anglash hayotga chanqoqlikdan turmush ko’ngilxushliklaridan, lazzatlaridan hokimiyatga, boylikka intilishlardan batamom voz kechish yerdagi barcha hodisalarning beqaror va o’tkinchi ekanligini fahmlamoq darkor. Buddaviylik tarafdorlari “ yurmoqdan ko’ra o’tirmoq” “uyg’oq

bo’lgandan ko’ra uxlamoq afzal ”, “ yashamoqdan ko’ra o’lmoq yaxshi” degan

maqolga amal qiladilar. Azob-uqubatlardan qutqarishning yo’llarini topish haqidagi talimoti. Bu talimot yechimi “ Najotning olijanob sakkizinchi yo’li” da o’zining ifodasini topgan. Sakkizlik yo’li quyidagilar:

Taqvodorlik etiqodi.

Taqvodorlik qatiyati.

Taqvodorlik so’zi.

Taqvodorlik ishi.

Taqvodorlik turmush tarzi.

Taqvodorlikka intilish.

Taqvodorlikni orzu qilmoq.

Taqvodorlik fikri - hayoli bilan yashash.

Shunday qilib... buddaviylikda najot(azob - uqubatlardan qutulish) bu

- bu dunyodan (buddaviylikda bu dunyo qayta tug'ilish dunyosi deb yuritiladi).

Yani sansaradan Nirvanaga o'tishdan iboratdir. Nirvana o'zi nima? Buddaviylikda olam uch bosqichli deb tariflanadi. 1) Eng yuqorisi nirvanadir - unda mutloq osoyishtalik hukm suradigan olam. U erda inson barcha turmush tashvishlaridan xalos bo'ladi... uning hayotiy istaklari ham tuyg'ulari ham... ehtirolari ham bo'lmaydi. Nirvana bu qayta tug'ilishlar silsilasining olis qismi. Insonlarning boshqa qiyofalarga kirishining to'xtashi... (yani) jonning ko'chib yurishi... mutloq osoyishtalikdir. 2) Ikkinchi olam - bu bodissatvadir... yani ruhiy mavjudotlar bilan Bo'lgan jannatdir. Bu olamda ruh gunohidan xalos bo'lgan... lekin eng oily olamga ko'tarilmagan avliyolar yashaydilar. Olamning shu qismidan

kishilarga o'rganishi... ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatishi uchun budda talimoti -

yuboriladi deb hisoblanadi. Uchinchi olam bu eng quyi olamdur... unda odamlar va xayvonlar yashashadi. Olamlarning bu qismida ruh qafasda yashaydi. Ruh yuqori olamga o'z - o'zidan emas... balki odamlarni savob ishlari orqaligina ko'tarilishi

mumkin. Yomon kishilarning ruhlari esa quyi dunyoda azoblanib qafas ichida

yura beradi... yuqori olamga ko'ratila olmaydi. Buddaviylik talimotiga o'lim insonni hayot azob- uqubatlardan xalos eta olmaydi... chunki o'limdan keyin ham insonni qayta tug'ilish kutadi. Agar insonning o'zi harakat qilmasa uni hech kim va hech narsa bu dunyo azob - uqubatlardan xalos bo'lib nirvanaga o'tishiga yordam bera olmaydi. Ilk Buddaviylikda najotga qayta tug'ilish zanjiri azob - uqubatlardan

halos bo'lishga taqvodor yoki rohibgina umid qilishi mumkin edi. Boshqa

odamlar esa faqat yaxshiroq bo'lib qayta tug'ilishni umid qilishi... buning

uchun rohiblarga hayr - sadaqa berishi hamda quyidagi 5 ahloqiy talabga

rioya qilishlari kerak bo'lgan.

Bironta tirik mavjudotni o'ldirmaslik:

Birovni mulkini olmaslik:

Birovning xotiniga ko'z olaytirmaslik:

Yolgon gapirmaslik:

Ichkilik ichmaslik.

Buddaviylik keyinchalik ikki oqimga - Xinayana (kichkina aravaga yoki

najot topishning tor yo'li) va Maxayana (katta aravaga yoki najot topishning

keng yo'li) bo'linib ketdi. Xinayana tarafdorlari Buddaviylikning ilk

talimoti talablariga qat'iy amal qilishni yoqlab chiqqanlar. Maxayana

tarafdorlari Budda talimotidan ancha uzoqlashib ketganlar. Uni zamon ruhiga moslaganlar. Agar Xinayana bu dunyo azoblaridan faqat Monaxgina qutuladi ... deb hisoblasa... Maxayana ruhiy kamolot ahdiga rioya etuvchi... Xudoga iltijo etuvchi rohiblarga inom berib yordam beruvchi har qanday oddiy dindor ham najot topishi mumkin... degan qoidaga asoslanadi. Maxayananing hozirgi davridagi eng muhim ko'rinishi - bu Lamoizmdir. U Tibet... Mongoliya... Xitoy... Nepal... Xindistonning yarim joylarida... shuningdek... Buryatiya... qalmiq.... Tuva respublikalarida keng tarqalgan. Buddaviylikning barcha aqidalarini qabul qilgan Lamaizmda inson faqat Lamalar yordamida najot topadi... gunohlardan poklanadi... Lamalarsiz oddiy bandalar jannatga tushib... Nirvanaga etishishi... u yoqda tursin... shunchaki bu dunyoda ham hech narsaga erisha olmaydilar.

Xristianlik .

Xristianlik yani, Nasroniylik Yaxudiylik dinidan mustaqil din sifatida ajralib chiqian va jahon dinlaridan biriga aylangan. hozirgi kunda Xristian cherkovi malumotlariga ko'ra jahonda bu dinga ikki milliarddan ortiq kishi etiqod qiladi. Eramizning I asrining 2 yarmida Rus imperiyasining sharqiy viloyatlarida ko'p xudolik dinlari o'rniga qullar va malum elatlarning dini sifatida Yakka xudolik (monoteistik) shaklidagi tarzda shakllangan. Xistianlik nomi uning asoschisi Xristos so'zining manosi "Xudo tanlagan", "Xudo siylagan", "Xaloskor" manolarini anglatadi. Xristian so'zi yunoncha bo'lib mazmuni Iso Masih yo'lidan yuruvchi kishi demakdir. Xristian, masihchi so'zidan olingan. Iso alayxissalom yaxudiy millatiga mansub bo'lib, taxminan milodiy I - 33 yillarda Falastinda hozirgi Isroilda yashab o'tgan. Milodiy yil hisobini ham Iso Masih tug'ilgan sanadan boshlab hisoblash qabul

qilingan. Diniy adabiyotlarda Iso onasi Bibi Maryamdan otasiz ilohiy homiladorlik asosida tug'ilgan deb rivoyat qilingan. Unga 30 yoshida Tavrot va Zaburdan keyingi 3 chi ilohiy kitob Injil nozil qilingan. Manosi "ilohiy xabar", "xushxabar", "ezgu xabar" demakdir. Bu dinni islomda nasroniylik deyilishi Iso Masihning tug'ilgan eri Nosira nomi bilan bogliq. Bu shahar ahli Iso Masihni Nosiriy deb atar edilar. Unga ergashgan kishini esa, nasroniy deb yuritganlar. Iso Masix 30 yoshida boshlab 3 yil davomida payg'ambarlik faoliyatida olib borgan. Isoning yangi dinni targ'ib qilishdagi muvaffaqiyatlaridan darg'azab bo'lgan quddus qonunlari ruhoniylari uni sudga berishga qaror qiladilar. Ushlab olingan Iso o'lim jazosiga hukm qilinadi. quddus ahli Isoni xudoning o'g'li odamzodning xaloskori deb etirof etmay uni toshbo'ron qiladilar. Iso Gangofa togi'da qiynab o'ldiriladi. Uni juda katta yog'och xoch (sanam) ga tiriklayin mixlab tashlaydilar. Rivoyat qilinishicha o'limning uchinchi kuni Iso tirilib bir muncha vaqt davomida o'z shogirdlari bilan birga bo'ladi. Shundan so'ng u ularning ko'z o'ngida osmonga chiqib ketadi. U kelajakda yani oxirat kuni tiriklar va o'liklar ustidan hukm chiqarish uni erga qaytib kelishga Xristian diniga etiqod qiluvchilar ishonadilar. Xristian dinining kelib chiqishi va tarqalishi milodning I-III asrlarida Rim imperiyasida yoyilgan umumiy tushkunlik inqiroz kunlarining shavqatsizlarcha ezilishi yahudiylar jamoasida esa oddiy yahudiylarning uch tomonlama ezilishi, og'ir hayoti sababchi bo'lgan. Rim imperiyasi tarkibiga kirgan yahudiylar bir tomondan Rim hukmdorlari, ikkinchi tomondan yahudiy podsholigi, uchinchi tomondan yaxudiy ruxoniylardan jabr ko'rar edilar. Azob - uqubat chekayotgan va ezilayotganlarning bunday ijtimoiy kuchlar oldidagi ojizligi ularni diniy tasali axtarishga olib

keldi. Shu tariqa insonlarni cheksiz jabr-zulm, azob-uqubatlardan ozod qilish “xaloskorlik” g’oyalari paydo bo’ldi. Bunday xaloskorlik g’oyalariga millionlab qullar, ezilganlar, jabr-diydalar maxliyo bqlidilar. Shu tariqa Xristianlik dastavval qullarning ezilganlarning, jabr-diydalarning orzu-umidlarini ifodalovchi xaloskorlik dini sifatida paydo bo’lgan. Rim imperatori Konstantin bu dinni qabul qilib, 324 yilda Xristianlikni davlat dini deb elon qildi. 325 yilda Konstantinning ko’rsatmasi bilan jahon xristianlarining birinchi yigini - Nikey savori chaqirildi. Bu savor (yig’in) da yepiskor va iloxiyotchilar xristianlikning asosiy aqidalarini tasdiqladilar, cherkov qonun-qoidolari yozilgan kitoblari qabul qildilar va cherkov tashkiloti tugal xolga keltirildi. Diniy tashkilot pop, dyakon, yepiskop, kardinal kabi quyosh va oliy mansablar joriy etildi. Ular xristianlikni targ’ib etish... mustahkamlash ... diniy talablarni bajarilishini nazorat qilish ishlari bilan shug’ullanganlar. Xristianlik zohidlik... tarkidunyochilik kuchayib monastirlar paydo bqlidi. Rim episkoplari... V - asrdan esa papalar xristian olamiga tanho xukmronlik qila boshladilar. XII asrga kelib butun Ovro’pa xristianlashtirildi. Rossiyada bu dinga chqiintirish marosimi 988 yilda Kiyev knyazi Vladimir tomonidan amalga oshirildi. Xristianlik yahudiylilik dini zaminida Falastinda paydo bqlib... so’ng jahon dinlaridan biriga aylandi.

2) Xristianlikning diniy talimoti mazmunini asosan quyidagilar tashkil etadi: Xudo muqaddas uchlikda namoyon bo’ladi. Lekin mohiyatan yagonadir. Ammo xudo xudo- ota, xudo-o’g’il, xudo-muqaddas ruh ko’rinishida namoyon bqladi. Bu xolat esa yakkayu-yagona xudoga shirk keltirish edi. Mana shunday yanglish, xato aqidalari tufayli nasroniylar musulmonlar tomonidan “kofir”-kufrga ketgan deb ataladi. Bu uch qiyofali xudolar ayni

paytda tojlariga ko'ra farq qiladilar. Xristianlik talimotiga ko'ra Xudo
- ota tug'ilish yo'li bilan paydo bo'lmagan... hech kim yaratmagan u o'zi abadiy
mavjud. Xudo – o'g'il esa tug'ilgan. Xudo - muqaddas ruh esa... xudo otadan
paydo bo'lgan... Nasroniylar iso Masihni Xudo – o'g'il darajasiga
ko'targanlar. Xristianlikning asosiy aqidalari: “ Xudo – o'g'il (Iso) Masih - Xudo
yarlaqagan vakil. U ilohiy haloskor. Iso - Xristianlikning asoschisi: Iso
ham ilohiy ... ham insoniy tabiatga ega. Bibi Maryam Xudo (Iso)ning
onasi... u qizlik iffati saqlangan holda ilohiy homilador bo'lgan va
Isoni tuqqan. ” Xristianlik diniy talimotining bosh g'oyasi yakka xudolik gunohga botish va
undan xalos bo'lish aqidasi. Milodiy 395 yilda qudratli Rim
imperiyasi parchalanib - Farbiy (Rim) va Sharqiy (Vizantiya) qismlarga
bo'linib ketdi. 476 yilga kelib... Farbiy Rim saltanati butunlay quladi.
Rim cherkovi uning boshligining nufuzi oshib ketdi. Cherkov boshligi Rim
papasi deb atalib, cheksiz xuquqqa ega bo'ldi. 1054 yilga kelib, Rim va
konstantinopol cherkovlari o'rtasida diniy talimotlarni talqin etish, yani
vujudga kelgan chekovlarni nazorat qilish, daromatlarni taqsimlash
yuzasidan kelib chiqqan ixtilof keskinlashdi. Oqibatda Rim papasi Lev IX
va Konstantinopol cherkov boshligi Kirudoriy bir-birlarini
lanatladilar. Xristianlik shu sanadan boshlab ikkiga ajralib ketdi.
Ulardan biri Rim papasi bo'ysunuvchi katolik (butun dunyo) cherkovi,
ikkinchisi Konstantinopol patriarxatiga bo'ysunuvchi Provoslavl (chin
etiqa) degan nom oldi. Bular Xristianlik Farbiy va Sharqiy
cherkovlariga ajralib ketdi. Katolik - yunoncha so'z bo'lib, manosi “
umumjahon ”, “ umumiy ”, “ asosiy ” demakdir. Uch yagona jahon markazi – Vatikan davlatida
joylashgan. Cherkovning bosh ruhoniysi - Rim papasi sanaladi.
Rim papasi Isoning yerdagi noibi. Katolik cherkovini papa va uning
kardinal (o'rinbosar) lari boshqaradilar. Katolilik xristian dinining

asosiy aqida va marosimlarini etirof etadi. Jannat va do'zah bilan
birga ohirzamonda hisob - kitob mashhar kunini bor deb hisoblaydi.
Ruhoniy'larga uylanish - nikohni taqiqlaydi. Katolilik marosimiga ko'ra
chaqaloqni cho'qintirilayotganda suvga botirib olmaydilar balki uning
ustidan suv quyadilar. Cho'qintirilgandan so'ng surtiladigan xushbo'y moy
go'daklikda emas keyinchalik balog'at yoshida surilishini tayin etilgan.
Diniy ibodat lotin tilida olib boriladi... bu oqimga xos xususiyat
sanaladi. Cherkov statistikasiga ko'ra... hozir er yuzida katoliklar 900
milliondan ortiq. Italiya... Ispaniya... Portugaliya... Frantsiya... Belgiya...
Avstraliya... Lotin Amerikasi mamlakatlarida katoliklik hukmron
diniy tashkilot sanaladi. Polsha... Chexiya... Slovakiya... Vengriya... Boltiq
bo'yi mamlakatlari va Kubada aholining ko'pchiligi katoliklikka etiqod
qiladilar. Pravoslaviya manosi chin etiqod demakdir. Pravoslaviya
oqimining katoliklikdan farqi shuki bu oqimda yagona diniy markaz...
cherkovlarning yagona rahbari yo'qligidir. hozirda pravoslavieda 15 ta

avtokafel (mustaqil) cherkov mavjud bular Konstantinopol... Aleksandriya... quddus... Rus...
Gruziya... Serb... Ruminiya... Bolgar... Alban... Polyak... Chexiya... Amerika va boshqa
cherkovlardir. Pravoslavie 1054 yilda xristianning sharqiy Rim imperiyasi o'rnida rasmiylashgan
va uning davlat dini bo'lgan. Pravoslavie - olamining yaratuvchisi va boshqaruvchisi muqaddas
uchlikdan iborat yagona xudo ekanligi... narigi dunyo ajr to'g'risidagi dastlabki gunoh tufayli
azob

uqubatlarga duchor qilingan insoniyat najot topishga imkon beruvchi Iso
Masihning haloskorlik faoliyati (Missiyasi) haqidagi aqidalarni tan
oladilar. Bu oqimda etti sirli marosim asosiy qirinni egallaydi. Bu
cho'qintirish non va vino tortish... ruhoniylar unvonini berish... tavba
tazarru yashro surtish... muqaddas zaytun moyi surtish ... nikoh
marosimlaridir. Pravoslaviening katolikdan farqlari shuki muqaddas ruh faqat Ota-
Xudodan kelib chiqqanligi cherkov boshliqlari emas... balki cherkovning
gunohsizligi va aqidalarning o'zgarmasligi etirof etiladi.

Ruhoniylarning uylanishlari va nikohdan utishlari majburiy qilib belgilangan. Pravoslavieda bayramlar nihoyatda ko'p ular ulug' o'rta va kichik bayramlarga bo'linadi. Pasxa bayrami xochga tortilgan Isoning mo'jizaviy qayta tirilishi xotirasiga bag'ishlangan bo'lib... bahorgi tengkunliklarda nishonlanadi. Rojdestvo Xristovo- Iso Masihning tug'ilish bayrami...katoliklikda har yili 25 dekabrda... Pravoslavie 7 yanvarda nishonlanadi. Xristianlikdagi uchinchi oqim Protestanizm bo'lib... norozilik bildiruvchi kelishmaslik degan manoni bildiradi. Protestanizm ham xudoning borligini ... uning uch qiyofada namoyon bo'lishini jonning o'lmasligi... jannat va do'zah haqidagi umumxristian talimotini etirof etadi. Protestanizm 3 yangi qoidani joriy etadi. Shaxsiy etiqod bilan najot topish mumkinligi. Dinga ishonuvchi barcha kishilarning ruhoni bo'lishi mumkinligi.

Injilning oliy nufuzi. Xristianlikning bu oqimida insonning xudoga va cherkovga munosabati soddalashtirilgan. But va sanamlarga siginish yo'q. monahlik va ruhoniylarga uylanmasligi qoralanadi. Protestanizm sirli marosimlarning ko'pchiligini bekor qildi, faqat cho'qintirish hamda non va vino tortish marosimini qoldirdi. Protestantlar soni hozirgi davrda butun dunyoda 250 milliondan ortiq. Protestanizmdagi asosiy oqimlarga babtizm, starovelar, duxoborlar, molokonlar... marionlar...adventistlar va boshqalar kiradi.

Babtizm - yunoncha sqz bqlib... “ suv bilan chqiintirish” degan manoni bildiradi. Bu talimot bo'yicha bolalar yoshligida emas... balki voyaga etganda... dinga nisbatan ongli bo'lgandagina cho'qintirilishi lozimligi uqtiriladi. Xristianlikda muqaddas hisoblanadigan avliyolar... monaxlik... ikona... but va boshqalar rad etiladi. Babtizm ruhoniylarning dindorlar bilan insonlar o'rtasidagi vositachiligini rad etadi.

Insonning yashashdan maqsadi... o'zini narigii dunyoga tayyorlashdir deyiladi. Jahonda babtistlar soni 35 milliondan ortiq.

Duxoborlar - ruhga etiqod qiluvchi Xristianlar... ruh uchun

kurashuvchilar - eski rus sektanligi yo'nalishlaridan biridir. Ular ruhoniylarni... monahlikni... butxonalarni... pravoslav qoida va marosimlarni xoch va ikonalarga topinishni rad etganlar. Iso masih oddiy inson... xudoning o'g'li emas ammo unda ilohiy aql mujassam bo'lgan deyiladi. Adventistlar - lotincha so'z bo'lib... voqe bo'lish manosi bildiradi.

Adventistlar jonning o'lmasligini inkor etadilar. Jon tana bilan birga O'ladi va Iso qayta tirilib kelgan kun yana tiriladi. Shanba kunini dam olish deb belgiladilar. Adventistlar Iso qayta tirilib kelib oxiratdan avval ming yil hukmron qiladi va bu kun yaqin deb ishonadilar.

Xristianlik dinining talimoti "Bibliya"da bayon etilgan.

"Bibliya" kitoblar demakdir. U yaxudiylik va xristianlikda muqaddas hisoblangan diniy kitoblar va risolalar majmuasi. Bibliya o'z ichiga Tavrot... Zabur va Injilni olgan... Eski ahd (eski vasiyat) va yangi ahd (yangi vasiyat) deb nomlanuvchi ikki qismdan iborat ilohiy kitobdir. Tavrot va Zabur Bibliyaning eski ahd qismiga kiritilgan bo'lib... u yahudiylar va nasroniylar uchun birday ilohiy kitob hisoblanadi. Bibliyani xristianlik bilan bog'liq ikkinchi qismi yangi ahd deb yuritilib... unga Injil kiritilgan. Yahudiylar Injilni tan olmaydilar va muqaddas hisoblamaydilar. Bibliya miloddan avvalgi VIII asr va milodiy II - asrlar oraligida oromiy va yunon tillarida yozilgan. Bibliya mantlari tadqiq etilganda shu narsa tasdiqlandiki... ular qariyb ming yil davomida

xilma-xil joylarda yaratilgan. Bibliya eng qadimiy adabiy yodgorliklardan biri bo'lib... diniy pand - nasihatlar... aqidalar... bashoratlar... duolar... solnomalar...

masallar... xikoyatlar... rivoyatlar va maktublardan iborat. Ayniqsa...

odamlarga najot yo'lini ochgan Iso Masih to'g'risida to'laqonli xabar

beriladi. Bibliyaning Yangi ahd deb ataluvchi qismi Injillar 27 kitob (

bo'lim) chadan iborat bo'lib... unda Iso Masihning dunyoga kelishi... yashashi...

o'lib keyin tirilish - talimoti bayon qilingan. Injilni Iso Masihning 12 shogirdi va safdoshi apostollar yani xavoriylar payg'ambar o'limidan keyin I - II asrlarda yozib kitob xoliga keltirganlar. Matto ... Luka... Marko va Yuxanno kabi oposito (xovoriy) lar yozgan 4 ta Injil kitobi: Evangeliya (xushxabar)... xavoriylarning amallari... 21 risolasi va Ioann " Vaxiynoma"si milodiy 313 yilda Papa Buyuk Konstantinning buyrug'iga muvofiq qabul qilingan.

Islom

Islom dini jahon dinlari ichida eng yosh dindir. Etiqod qiluvchilari soni jihatidan Xristianlikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bugungi kunda Islom tarqalmagan qita yoki davlat yo'q. Yer yuzi aholisining 1,5 milliardga yaqini Islomga etiqod qilmoqda. Bu din eramizning VII asrida Arabiston yarim orolida vujudga kelgan. Islom so'zi " Itoat va bo'ysunish"... " Ixlos va turli ofatlardan salomat bo'lish" hamda " sulh va omonlik" degan manolarni bildiradi. Islom Alloh yagona degan etiqod bilan unga bo'ysunmoqlik... itoat etmoqlik va butun qalb bilan unga ixlos qilmoqlik hamda Alloh buyurgan diniy etiqodga iymon keltirmoqlik demakdir. Bu dinning asoschisi Muhammad ibn Abdulloh hisoblanadi.

Tarixiy manbalardagi va quron oyatlaridagi ayrim malumotlarga

Ko'ra... Muhammad paygambar 570- 571 yilda Makkada tug'ilgan. Yoshligida yetim qolgan...amakisi qo'lida xizmat qilgan. 25 yoshida beva xotin boy Xadichaga uylangan va uning mablag'lari bilan mustaqil savdogarlik qila boshlagan. U zot tahminan 39- 40 yoshlarida makkada yakka xudo Allohga etiqod qilish to'g'risidagi targ'ibotni boshlagan. Muhammad (s.a.v) va uning safdoshlari

islomda nafaqat mukammal dinni ayni paytda unda Arab qabilalari yagona davlatga birlashtirish g'oyasini ilgari surgan. Bu maqsad yagona - Allohga asoslangan Islomni butun Arabistonda hukmron dinga aylantirish orqalig'ina amalga oshirish mumkin edi. 630 yilda Arabiston yagona

davlatga birlashtirilgach Islom yagona hukmron dinga aylangan.

Islom dinining talimoti uning muqaddas kitobi quroni Karimda

bayon etilgan. Unga ko'ra Islom talimotining asosini Imon... Islom va

Ehson tashkil etadi.

Islom (Etiqod, ichki ishonch) 7 aqidaga asoslanadi.

Allohga

Farishtaga

Payg'ambarga.

Muqaddas kitoblarga.

Oxiratga.

Taqdirga.

O'lgandan keyin tirilishga ishonishdir.

Alloh - dunyodagi barcha mavjudodlarni yaratgan. Olamda yuz bergan va

beradigan barcha voqea va hodisalar olloh tomonidan belgilangan va uch

irodasi bilan sodir bo'ladi. Ollohni hech kim bor qilgan emas, u o'zidan o'zi

bordir. Olloh bordir, yakkadir, yolgizdir. Uch sherigi, o'xshashi tengdoshi,

farzandlari, oilasi, yo'q. U o'lmaydi, uxlamaydi. U biluvchidir,

bilmaydigan biror ishi yo'q. U har ishga qodirdir, hamma narsani

ko'ruvchidir va eshituvchidir. Alloh bildiruvchi, tarbiya qiluvchidir.

Allohda hech qanday nuqson va kamchilik yo'qdir. U hamma yerda xozir. Alloh

yemaydi, ichmaydi, kasal bo'lmaydi. Farishtalar- Allohning nihoyatda itoatlik, hech bir gunohsiz, nurdan yaratilgan, odamlar ko'zida ko'rinmaydilar bandadir. Ular ollohning buyurgan ishlarini bajaradilar. Ularda yerlik, ayollik tuygusini tug'dirish, yoyish-ichish, uxlash kabi xususiyatlar yqi. Farishtalar eng mashhurlari

Jabroil, Mikoil, Isrofil, Azroildir. Payg'ambarlar - ollox tomonidan bandalariga din xukmlarini o'rgatmoq uni yuborilgan elchilaridir. Ular olloh tomonidan buyurilgan din va shariat hukmlarini bandalariga etkazadilar, Ularni haq dinga yaxshi

ishlarga vaz nasihat bilan chaqiradilar. quroni Karimda 25 payg'ambarni ismi keltirilgan.

Payg'ambarlar ikki xilga bo'linadilar. 1) Rasullar. 2) Nabiylar. Alloh tomonidan qo'lariga

alohida kitob va shariat berilgan payg'ambarlar rasul deb ataladi. Payg'ambarlardan 8 nafari:

Odam, Idris, Shis, Ibrohim, Muso, Dovud, Iso va Muxammad Rasul Payg'ambarlardir. O'zlariga maxsus kitob va shariat berilmay, bir rasulga berilgan kitob va shariat asosida ish qilishga buyurilgan payg'ambarlar nabiylar deyiladi. Nabiylar rasul bo'la olmaydi. Rasullarning har biri ayni paytda nabi ham hisoblanadilar. Muqaddas kitoblar- o'sha zamonning payg'ambarlariga vahiy qilib yuborilgan kitoblaridir. Alloh qz paygambarlariga 100 sahifa- Odam, Shis, Idris, Ibrohim: 4 kitob esa Muso, Dovud, Iso va Muhammadga yuborilgan. Oxirat - narigi dunyo, o'lgan bandalarning Alloh qudrati bilan tirilishi va Alloh tayin qilgan yerga yig'ilish kuni deb ataladi. Bu kun

bandalarning bu dunyoda qilgan yaxshi, savob yoki gunoh ishlariga yarasha hukm

chiqariladi. Yig'iladigan joyning nomi "Mashhar eri", kuni esa "qiyomat

kuni" deb ataladi. Taqdir - alloh tomondan har bir bo'lgan va bo'ladigan ishlarni

Bilmog'ini azaldan oldindan tayin belgilab qo'yilishidir. Buni bizda

peshonasiga yozilgan ham deyiladi. Islom dinida "Islom arkonlari degan tushuncha mavjud" u besh asosdan ustundan iborat: 1. Iymon, 2. Namoz, 3. Rqza,

4. Zakot, 5. Xaj. Bular har bir musulmon uni farz qilib belgilangan.

Islom dini bayramlariga - ramazon hayiti, qurbon hayiti, mavjud va

boshqalar kiradi.

Iymon- allohdan ularga iloh yo'qligiga va Muxammad uning bandasi va

rasuli ekanligiga ishonmoq va etiqod qilmoqlikdir.

Namoz - kuniga besh maxal qib namozlar - farz, sunnat, vojib kabilarga

Bo'linadi. Ro'za - kun chiqishidan to kun botishiga qadar yemoq va ichmoqlikdan tiyilmoq va niyat qilmoqlikdir. Ro'za har bir sog'lom musulmon uni farz ibodati sanaladi. U hijratning ikkinchi yili Madinada farz qilingan.

Zakot - mol mulki shariat belgilagan miqdorga etganda yilda bir

marotaba ulardan qirqdan birini yani 2,5 foizini beva-bechoralar,

miskinlarga va boshqa muhtojlarga berilishi shart bqlgan. Allohning haqi.

Xaj - ham jismoniy, ham manaviy, ham moddiy ibodat. Xaj

Kabatulloxni tavof qilmoq. Safo va Marva tog'lari orasida yugurmoq,

Arofat tog'ida bo'lmoq va zarur marosimlarni ado etmoq uni Makka shahriga

ziyosatga bormoqlikdir. Xajning shartlari: 1. Islom dinida bqlish. 2.

Balog'atga etgan bqlishi. 3. Oqil bqlish. 4. Ozod bqlish. 5. qodir bqlish.

Yuqorida bayon qilinganlar Islom talimotining asosini tashkil etadi. VII asrda Islom ikkita yirik yqnalishlarga: Sunniylik va Shialikka bo'linib ketdi. Sunniylik deb, diniy qonun - qoida va targ'ibolarga amal qilishda quroni Karim va payg'ambarimiz hadilari - "Sunna" ga birdan amal qiluvchilarga aytiladi. Sunniylik yqnalishi "ahli sunna val jamoa" deb ataladi. Bu nomda payg'ambarning sunnatiga amal qilish va musulmonlarning asosiy ko'pchilik jamoasi manolari aks etgan.

Jahondagi musulmonlarning 92,5 foizini sunniylik yo'nalishidagilar tashkil etadi. Sunniylikka mansublikni bildiruvchi asosiy belgilar: dastlabki 4 xalifa (Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali) hokimiyati qonuniy ekanligi tan olish, 6 oltita xadis tqplami (al- Buxoriy, Muslim, at - Termiziy, Abu Dovud, an-Nasoniy, Ibn Moja to'plamlari) ni sahih (ishonchli) deb bilish sunniylikdagi tqrit diniy - huquqiy mazhat: qanafiyluk, Molikiyluk, Xanbasiylukdan biriga mansub bqlishdan iborat.

Sunniylikdagi eng yirik mazhab qanafiya bqlib, unga Iso hajdagi musulmonlarning 47 foizini tashkil etadi. Bu mazhabning asoschisi Abu Xanifa No'mon ibn Sobit (699-767) dir. Abu Xanifa Shariat xuquqlarini tizimga solgan. Shariat qonunlarini musulmonlarning hayotida qrlldashda hukm chiqarishda xulosaga kelishda avvalo quroni karim, sqngra paygambar sunnatlari xadislarni, undan keyin ijmoni, oxirida qiyosni qrlldagan. U mahalliy xuquq, meyor odatlarni shariat bilan kelishtirib qrlldashni joriy etgan. Islom xuquqshunosligiga oqim - idrok, muloxazakorlik bilan ish ko'rish tadbirlarini kiritgan. Bu yo'lni Imom Azam yo'li deb ham yuritiladi.

Sunniylikdagi ikkinchi mazhab: molikiylukdir. Uch asoschisi Molik Anas Abulloh (713 - 795) dir. Islom xuquqini puxta egallab, "Madina islomi" unvoniga sazovor bo'lgan, Molikiyluk mazhabidagilar quron va

Xadis huquq asoslari sanaladi deb hisoblaganlar. Ular payg'ambarlarga

oid xadislarnigina saxix deb tan oladilar. qazirda jahondagi

musulmonlarning 17 foizi molikiylik mazhabidadir. Madinaning

savodli ahdillik bilan maqullagan qoidalarini ijmo deb

hisoblaydilar. Sunniylikdagi uchinchi diniy - xuquqiy mazhab: Shofiylikdir bo'lib, uning asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos at-

Shofiiy (767 - 820)dir. Shofiylik quron va sunnaga yagona manba

sifatida qaraydi. Shofiylikka ko'ra sunna quronni to'ldiradi...

sunnaning o'zi qiyoslab qrtaga hukm chiqarish uchun asos bo'lolmaydi. U

ijmodan foydalanishga katta etibor beradilar. qozirda 27 foiz

musulmonlar shofiiy mazhabi yqlidan bormoqdalar.

Sunniylikdagi tqrtinchi mazhab Xanbaliyadir. Uning asoschisi Abu

Abdulloh ibn Xanbal (780- 855)dir. Bu mazhab huquq tizimining qta

torligi har qanday kqrinishdagi " yangilikka" diniy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshiligi... shariat meyorlariga qat'iy hech qanday o'zgarishsiz amal qilishi bilan ajralib turadi. Mazkur mazhabda quroni Karim na hadislarni erkin talqin etishdagi har qanday urinishlar qoralanadi. Hozirda barcha

musulmonlarning 1,5 foizi xanbaliya Mazhabidadir. Sunniylik qisman

Eron... Janubiy Iroq, Yaman... Markaziy Osiyo... Kavkaz bo'yi... Sibir...

Ural... Kichik Osiyo,Mif va Shimoliy Afrika... Indoneziyada keng

tarqalgan. Shialik... guruh... partiya tarafdorlari degan manolarni beradigan

arabcha " Shia" so'zidan kelib chiqian. VII arsning ikkinchi yarmida

musulmonlarning maxsus va siyosiy guruhi sifatida yuzaga kelgan. Shialar

sunniylar kabi Quroni Karimni ilohiy deb etirof etadilar... ammo

dastlabki uch xalifa davrida uning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan

deb hisoblaydilar. Ular yana Payg'ambar qadislarning hammasini

etirof etmaydilar... balki faqat xazrat Ali va uning tarafdorlari

tomonidan rivoyat qilingan Xadislarnigina tan oladilar. Ular shunday

xadislardan iborat to'plam tuzganlar. Bu to'plam umumiy nom bilan "Axbor"

deb ataladi. Shialar Ali va uning avlodlaridan iborat 12 imom

hokimiyatini tan oladi. Alidan boshqa xalifalarni xususan dastlabki

xalifalar Abu Bakr... Umar... Usmon hokimiyatini zo'ravonlik bilan

egallab olgan deb qoralaydilar. Sunniylikda etirof etilgan 7 ta diniy aqidalardan farq qilib ... shialikda 5 aqidaga etiqod qilinadi. Bulardan 4 ta aqida Allohning

yagonaligi... taqdirga ... paygambarlarga ... qiyomat- oxirat kunini kelishiga

ishonish asosan sunniylik talimoti bilan mos tushadi. 5 aqida Imomat

esa (imomlar hokimiyatini etirof etish) sunniylikka va sunniy

xalifalar hokimiyatiga zidligi bilan farq qiladi. Sunniylar uchun Makka

va Madina shaharlari ziyorat va hajga boradigan Muqaddas shahar

hisoblanadi. Shialar esa Makka va Madinani muqaddas hisoblash bilan

birga imomlar dafn etilgan shaharlarni ham muqaddas hisoblaydilar va

ziyosat qiladilar. Quron Alloh tomonidan vahiy qilingan 4-ilohiy kitobdir. Quron

So'zining lug'aviy manosi qiimoq, iuroat qilmoq demakdir. U musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Quronda o'zidan oldin nozil bo'lgan sahifalar, Tavrot, Zabur, Injil kabi barcha ilohiy kitoblarning mano, hikmat va ahkomlarini qzida jamlanishiga ishorat bor. quronning nozil qilinishi muqaddas ramazon oyining 27-kuni kechasi boshlangan. Shu sababli bu muqaddas hisoblanib, ruza tutilgan kunining 27-kechasi "Laylat ul qadr" yani qudrat kechasi, ilohiy qudrat namoyon bo'lgan tabarruk kecha deb uluglanadi. Quron Karimning asosiy mavzusi va maqsadi bashariyat tafakkurida ko'pxudolikka barxam berish, yakkaxudolikka targ'ib qilish va Islom dinini qratishdir. Muxammad (s.a.v.) 40 yoshga etganlarida Makka atrofidagi tog'laridan biridagi Xiro nomli g'orda quronning birinchi oyatlari nozil bo'la boshlagan. Bu jarayon Makkada qn uch yil, Madinada qn yil, hammasi bqlib yigirma uch yil davom etgan. Muxammad (s.a.v.) ning amrlariga muvofiq Juron har xil xajmdagi 30 pora (bqlak kism): 114 suraga bqlinadi. U 6236

oyatdan iborat. quronning oxirgi oyati paygambar vafotlaridan 18 kun

avval nozil buldi. quron har bir surasining o'z nomi bor. Bazi

suralarning nomi suraning avvalidagi so'zdan olingan. Bazilariniki

esa... qsha zikri kqproq kelgan narsalarning nomiga qryilgan.

"Sura" sqzi lugatda qrgon... manzil va sharaf manolarini

anglatadi. Ulamolar esa... sura quron oyatlarining boshlanishi va tugashi

belgilangan mustaqil toifasi ekanligini takidlaydilar. quron
oyatlarining qo'rg'on ila o'ralgandek bir toifasiga sura deyiladi. Juron
karimdagi eng qisqa Kavsar surasi bqlib... uch oyatdan ... eng uzun sura
Baqara surasi bqlib... 286 oyatdan iboratdir. quron suralari ikki qismga
Bo'linadi: Xijratdan avval tushgan suralar " Makka suralari" deyiladi.
Xijratdan keyin tushgan suralar " Madina suralari" deyiladi.
86 sura 4780 oyat Makkada 610 - 622 yillarda 28 sura 1456 oyat

Madinada 622 - 632 yillarda nozil bqlgan. Muhammad (s.a.v) quron oyatlarini farishta
Jabroildan eshitib... yodlab olishardi. Shu bilan birga yozishni biladigan sahobalar... shu
jumladan ... Abu Bakr...Usmon... Umar... Ali... Zayd ibn Sobit ... Ubay ibn Kab va boshqalar
Xurmoning po'stlog'iga ... yapaloq toshlariga

... katta suyaklarga teriga... qog'ozga va shunga o'xshash narsalarga
quronni yozib borganlar. Muxammad (s.a.v.) ularga yangi tushgan ot
qaysi suradan ekanini va qaerda turishi lozimligi kqrsatib
berganlar. Paygambar hayotlik vaqtlarida yana vahiy tushib qolar,
degan umidda quronni jamlab kitob shakliga keltirganlar.

Muxammad (s.a.v.)dan so'ng musulmonlar Abu Bakr boshliq
(xalifa) qilib saylandi. Bu davrda dindan qaytganlar bilan
musulmonlar orasida qattiq janglar bqldi. O'sha janglarda quronni
tqliq yot olgan qorilar shaxid bqldilar. Shunda Umar Abu Bakrga
qorilar o'lib ketaversa, quronga zarar etishi mumkin, shuning uchun
uni kitob shakliga keltirib jamlab qryish kerak, degan maslahatni
berdi. Abu Bakr bu ishni bajarishni paygambarning eng yaqin
sahobalaridan biri bqlmish Zayd ibn Sobitga tophirdi. Bir yildan
ortiq vaqtda mashaqiatli mehnat natijasida quron jamlanib kiyik
terisiga uch saxifalari yozib tugatildi. Jamlanib kitob holiga
keltirilgan quron sahifalari Abu Bakrning uyida saqlandi. U kishi
vafotidan sqng esa qizlari va payg'ambarning xotinlari Xafsa

huzirida qoldi. Vaqt qtishi bilan Islom davlatining chegarasi kengayib kqplab xalqlar ham musulmonlikni qabul qilib, musulmonlarning soni ko'paygandan sqng quronni qiishda turlicha kelishmovchiliklar chiqa boshladi. Bu holatni kqrgan xalifa Usmon Xafsadan Abu Bakr davridagi sahifalarni so'rab olib undan olti nusxa ko'chirishga buyruq berdi. Nusxalar tayyor bqlgan sqng xalifalarning markaziy shaharlari Makka, Shom, Kufa, Basraga bittadan nusxaga quron tilovatini yaxshi biladigan bittadan qori qushib jqnatdi. qammaga faqat shu nushadan quronni kqchirish va shu qoridan qiroat qrganishga buyruq berdi. Talifa kqchirilgan saxifalardan yani birini odamlarga qiroat talimi berishni Zayd ibn Sobitga topshirilib Madinada qoldirdi. Usmon qziga ko'chirilgan nushadan bir dona qoldirdi. Keyinchalik nusha kqchirish yqlga qryilishi bilan ko'chirilgan har bir nushaning ishonchli ekanligini tasdiqlash maqsadida... bu nusha Mushabi Usmonga muvofiqdir...deb yozib qo'yiladigan bo'ldi. Shu tariqa quronning qarorlarini yozish uslubi bir xilligi saqlab qolindi. quron tarixan uch marotaba jam qilingan . Birinchi marotaba payg'ambar zamonida ... ikkinchi marotaba xalifa Abu Bakr davrida va nihoyat uchinchi marotaba qalifa Usmon vaqtida jamlangan. quron jumllariga biron bir qzgartirish... bironta xarfni ... xatto xarflar belgisini ham qo'g'artirish mumkin emas... qatiyan taqiqlangan. quon Islom dinining asosiy xujjati. Musulmon huquqshunoslari biron narsaning shariatdagi xukmini bilmoqchi bqlsalar ...albatta quronga murojaat qiladilar. O'sha narsa quronda bqlmagan taqdirdagina sunnat (xadis) ijmo... qiyosga murojaat qilishga qtadilar. Quron talimotining markaziy goyasi yakkayu yagona Alloh To'g'risidagi talimotdir. Unda iymon... Allohga ishonch... olamning

yaratilishi... farishtalar paygambarlar ...oxirat- qiyomat qayta

tirilish kazoi qadar Islomning asoslari va boshqa diniy

ko'rsatmalar belgilab berilgan.qurondagi ahloqiy...

huquqiy...ijtimoiy... iqtisodiy meyorlar islom dinining qonunlar

majmuasi - shariyatga asos qilib olingan. Juron musulmon xalqlar hayotida va tarixida asosiy qrin tutgan kitobdir. Mustaqillik yillari quroni karimni mazmuni o'zbek tiliga tarjima qilinib chop etildi. hadislar Islom dinining

qurondan keyingi ikkinchi manbaidir. qadis - arabcha so'z bo'lib...

manosi " xabar" ... " Yangilik"... " hikoya" demakdir. " hadis" va

" Sunnat" sqzlari muqaddaslar qrtasida bir manoda q'llanib paygambar

Muhammad (s.a.v)ning aytgan sqzlari... qilgan ishlari ...kqrsatmalari...

fel - atvorlari ... ahloqlari... hayot yo'llari to'g'risidagi rivoyatlarni

anglatadi.hadis islomiy esa Islom olamida eng ulug' va motabar

sanaladi.

MAHBA

<http://istiqlol.samdu.uz/uzc/article/226>